



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 10 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 10

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 10



ТОШКЕНТ-2025

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Агамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Сайнова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Шоҳистахон Улжаева ТАРИХИЙ ЙЎЛЛАР ЧОРРАҲАСИДА: АМИР ТЕМУР ВА ТЎХТАМИШХОН.....	5
2. Jummagul Abduraxmanova TOTALITAR TUZUM VA TA'LIM TIZIMIDAGI HOLAT (1925–1941 yillar).....	10
3. Гулнара Жолдасбаева ТНОГРАФИЧЕСКИЕ МОТИВЫ КАРАКАЛПАКСКОГО ГЕРОИЧЕСКОГО ЭПОСА «КОБЛАН».....	17
4. Dilshod Abdullayev 1946-1958-YILLAR O'ZBEKISTON SSRDA O'RTA MAXSUS TA'LIM TIZIMIDAGI VAZIYAT.....	23
5. Фарзия Ансорова ЗВАНИЯ И ДОЛЖНОСТИ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ В ТРУДЕ «ТАЪРИХИ САЛИМЎЙ» МИРЗО МУХАММАДА САЛИМБЕКА.....	28
6. Faxriddin Yormatov O'ZBEKISTONDA NURONIYLARNI HAR TOMONLAMA QO'LLAB QUVVATLASHNING IJOBIY NATIJALARI.....	37
7. Шаходат Зайниддинова ОСОБЕННОСТИ СТРУКТУРНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ, ПРОВЕДЕННЫХ В СИСТЕМЕ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ В ПОСЛЕДНИЕ ГОДЫ.....	43
8. Muborak Matyakubova XIVA XONLIGIDA IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGI: IQTISODIY TARAQQIYOT OMILLARI.....	49
9. Diloram Ziyayeva IX-XII ASRLARDA O'ZBEK DAVLATCHILIGI. IJTIMOIIY, SIYOSIY-IQTISODIY HAYOTI. AJDODLARIMIZNING JAHON SIVILIZATSIYASI TARAQQIYOTIGA QO'SHGAN ULKAN HISSASI.....	55
10. Farxod Ziyayev XX ASRNING 20-30-YILLARIDA SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDA YURITGAN SIYOSATI, UNING MOHIYATI VA OQIBATLARI. SIYOSIY QATAG'ONLIK.....	60
11. Shaxodat Ruzmatova XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA QO'QON XONLIGI AHOLISINING IJTIMOIIY TUZILISHI.....	65
12. Fotima Shirinova TURKISTONDA MUSTABID SOVET TUZUMIGA QARSHI QUROLI HARAKAT.....	71



Fotima Nosirovna Shirinova,
Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti
Gumanitar fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi

TURKISTONDA MUSTABID SOVET TUZUMIGA QARSHI QUROLI HARAKAT

For citation: Fotima N. Shirinova. ARMED MOVEMENT AGAINST THE TOTALITAR REGIME OF SOVIET POWER IN TURKESTAN. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 10.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17548892>

ANNOTATSIYA

Maqolada Turkistonda mustabid sovet tuzumiga qarshi qurolli harakatning yuzaga kelish sabablari, bu harakatning Turkiston zaminida yuzaga kelishining muhim ijtimoiy omillari, qurolli harakatga rahbarlik qilgan shaxslarning o'ziga xos xususiyatlari, harakat ko'lamining o'sib, kengayib borishi, uning saflariga yangi ijtimoiy tabaqalar vakillarining qo'shilishi, Turkistondagi qurolli harakatining asosiy harakatlantiruvchi kuchlari dehqonlar, chorikorlar, mardikorlar, hunarmandlar vakosiblar bo'lganligi va bu harakatning oqibatlari haqida tarixiy ma'lumotlar berilgan

Kalit so'zlar: Turkiston, Farg'ona, Qo'qon, Buxoro, Xorazm, mustabid, sovet tuzumi, qurolli harakat, ijtimoiy tabaqalar, harakatlantiruvchi kuchlar, harakat oqibatlari.

Фотима Насировна Ширинова,

Старший преподаватель кафедры Гуманитарных наук
Ташкентского университета информационной технологии

ВООРУЖЕННОЕ ДВИЖЕНИЕ ПРОТИВ ТОТАЛИТАРНОГО РЕЖИМА СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ В ТУРКЕСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

В статье освещаются причины возникновения вооруженного движения против авторитарной советской власти в Туркестане, важные социальные факторы возникновения этого движения на земле Туркестана, характеристика лиц, возглавивших вооруженное движение, рост и расширение размаха движения, включение в его ряды представителей новых социальных классов, основными движущими силами вооруженного движения в Туркестане были крестьяне, рабочие, ремесленники и ремесленники, а также исторические сведения о последствиях это движение. Ключевые слова: Туркестан, Фергана, Коканд, Бухара, Хорезм, Мустабид, советский строй, вооруженное движение, сословия, движущие силы, последствия движения.

Fotima N. Shirinova,
Senior Lecturer, Department of Humanities
Tashkent University of Information Technology

ARMED MOVEMENT AGAINST THE TOTALITAR REGIME OF SOVIET POWER IN TURKESTAN

ABSTRACT

The article highlights the reasons for the emergence of an armed movement against the authoritarian Soviet power in Turkestan, important social factors in the emergence of this movement in the land of Turkestan, the characteristics of the persons who led the armed movement, the growth and expansion of the movement, the inclusion in its ranks of representatives of new social classes, the main driving forces of the armed movements in Turkestan were peasants, workers, artisans and artisans, and historical information about the consequences of this movement is also given. Index Terms: Turkestan, Fergana, Kokand, Bukhara, Khorezm, Mustabid, Soviet system, armed movement, social classes, driving forces, consequences of movement.

1. Dolzarbligi:

Turkistonning yaqin o'tmishi tarixida yorqin sahifa yozgan hamda hiyla uzoq davom etgan, fojiali voqealarga to'lib-toshgan sovet hokimiyatiga qarshi ko'tarilgan bu qurolli harakatning mazmun mohiyatini sovet mustamlakachilari muttasil buzib, soxtalashtirib keldilar. Uni sovet tarixshunosligida "bosmachilar harakati", "aksilinqilobiy kuchlar bosqini", "bir to'da yurt buzg'unchilari harakati" singari nomlarda ta'riflab kelindi. Biroq xalqimizda "oyni etak bilan yopib bo'lmaydi" deyilganidek, ulug' ajdodlarimizning Vatan, elu yurt erki, ozodligi va mustaqilligi uchun olib borgan bu mardona kurashi to'g'risidagi tarixiy haqiqat milliy istiqlol sharofati bilan to'liq tiklanib, o'z haqqoniy, xolis bahosini topdi. Bu harakat sovetlar mafkurasi to'qib chiqargan shunchaki "bosmachilar" harakati emas, balki sovet hokimiyatining zo'rvonlikka asoslangan siyosati va amaliyotiga qarshilik ko'rsatish harakatidir. Mavzuning o'rganilishi sovet hokimiyati mustamlakachilik siyosatining mazmun-mohiyatini xolis yoritib berilishi bilan ham ahamiyatlidir.

2. Metodlar:

Mazkur maqolada tarixiy-statistik, qiyosiy-taqqoslash kabi metodlardan foydalanilgan holda Turkistonda mustabid sovet tuzumiga qarshi qurolli harakat tarixi ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

"Turkistonda mustabid sovet tuzumiga qarshi qurolli harakat" mavzusi quyidagi olimlar va tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan:

D. Alimovning "O'zbekiston mustabid sovet tuzumi davrida: siyosiy va mafkuraviy tazyiq oqibatlari" (2000) asarida sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat sovet repressiyalariga qarshilik sifatida tahlil qilgan. U harakatning ijtimoiy-iqtisodiy sabablarini va uning milliy ongini shakllantirishdagi rolini ta'kidlaydi.

D. Ziyoyeva "Turkiston milliy ozodlik harakati" (2000) kitobida 1916 va 1918–1924-yillardagi kurashlarni tarixshunoslik nuqtai nazaridan o'rgangan. U harakatni islomiy va pan-turkistik g'oyalarga asoslangan ozodlik kurashi deb baholaydi.

Turkiston muxtoriyati va qurolli harakat haqida bir qancha maqolalar muallifi E. Zokirov "Turkiston muxtor hukumatining sovetlar tomonidan ag'darilishi" (2017) asarida sovetlarga qarshi qurolli harakatning boshlanishini muxtoriyatning bostirilishi bilan bog'laydi va sovet terrorini hujjatlar asosida ko'rsatadi.

S. Muxtorov: "Turkistonda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli qarshilik harakati qatnashchilariga nisbatan qo'llanilgan qatag'onlik siyosati" asarida repressiyalarni tahlil qilgan. U Madaminbek va boshqa yetakchilarning faoliyatini yoritadi.

Mavzu xorijiy tadqiqotchilardan AQSh, Kolumbiya universiteti Martha Brill Olcottning "The Basmachi or Freeman's Revolt in Turkestan 1918-24" (1981, Soviet Studies jurnali). "Bosmachilik"ni iqtisodiy va diniy qarshilik sifatida tahlil qilgan, sovet siyosatini tanqid qilgan. |

Turkiyalik tarixchi olim Hasan B. Paksoy "Basmachi": Turkistan National Liberation Movement 1916-1930s" (1991) asarida qurolli harakatni pan-turkistik ozodlik kurashi deb baholagan.

Mavzuni o'rgangan olimlar ishlarida umumiy nuqta – harakatning mustamlakachilikka qarshi xarakteri va uning O'rta Osiyo mustaqilligiga ta'siri ko'rsatib berilgan.

3. Tadqiqot natijalari:

Turkistonning mustabid sovet tuzumiga qarshi qurolli harakati O'rta Osiyo xalqlarining mustaqillik va milliy ozodlik uchun olib borgan eng muhim va qonli kurashlaridan biri bo'lib, 1916-yildan 1943-yilgacha davom etgan. Bu harakat, asosan, "Bosmachilik" nomi bilan mashhur bo'lib, rus imperiyasi va keyinchalik sovet hokimiyatining mustamlakachilik siyosatiga qarshi isyon sifatida shakllangan. Harakatning mohiyati – mahalliy aholi, xususan, o'zbek, qozoq, turkman, tojik va qirg'iz xalqlarining diniy, milliy va ijtimoiy qadriyatlarni himoya qilishga qaratilgan bo'lgan. Sovetlar bu harakatni "bosmachilik" deb nomlab, uni banditizm sifatida ko'rsatishga urinishgan bo'lsa-da, zamonaviy tadqiqotlar uni milliy ozodlik kurashi sifatida baholaydi. Sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatning ahamiyati shundaki, u nafaqat sovet hokimiyatining mustamlakachilik xususiyatini ochib bergan, balki mustaqil O'rta Osiyo davlatlarining shakllanishiga asos solgan milliy ongni kuchaytirgan. Sovetlarning "qizil terror" siyosati va majburiy kollektivlashtirishga qarshi qarshilik sifatida "bosmachilik" O'rta Osiyo xalqlarining mustaqillik kurashining ramzi bo'lib qoldi.

1917-yilgi Fevral inqilobi natijasida tashkil etilgan Turkiston vaqtinchalik qo'mitasi, Oktyabr inqilobidan keyin bolsheviklar hokimiyati qo'liga o'tadi. 1917-yil noyabrda Toshkentda sovet hokimiyati e'lon qilinadi, ammo bu hukumat mahalliy aholi manfaatini himoya qilmadi. 1917-yil 27-noyabrda Qo'qon shahrida Turkiston Muxtoriyati tashkil etildi. Muxtoriyat milliy armiya tuzish va mustaqillikni e'lon qilishni rejalashtirgan edi.

Bolsheviklarning 1918-yil fevralda Qo'qonni bosib olishi (10 mingga yaqin aholi qirg'in qilingan) harakatning qurolli bosqichini boshladi. Bu voqea O'rta Osiyoda sovet mustamlakachiligining ramzi bo'ldi. Sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatning sabablari quyidagilar: 1) mustamlakachilik siyosati; 2) milliy-diniy identifikatsiyani bostirish; 3) iqtisodiy ekspluatatsiya. Bu omillar 1918-yilda qurolli qarshilikning boshlanishiga asos bo'ldi.

Turkistonda sovet tuzumiga qarshi qurolli harakatning rasmiy boshlanishi 1918-yil fevral oyiga to'g'ri keladi, ammo uning ildizlari 1916-yilgi qo'zg'olonga borib taqaladi. Qo'qon muxtoriyatining bostirilishi natijasida mahalliy qo'mondonlar – Kichik Ergash, Katta Ergash, Madaminbek, Shermuhammadbek – qurolli guruhlar tuzishdi. Farg'ona vodiysida dastlabki janglar 1918-yil bahorida boshlandi. Bu harakat dehqonlar, chorvadorlar va diniy ulamolar tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Ularning asosiy maqsadi – sovet hokimiyatini ag'darish va mustaqil Turkistonni qayta tiklash edi.

Xo'sh, bu harakatning Turkiston zaminida yuzaga kelishining muhim ijtimoiy omillari, sabablari nimalardan iborat edi? Nega 1918 yil bahoridan Farg'ona vodiysida boshlangan bu qurolli harakat asta-sekin alanga olib, Turkistonning keng hududlari bo'ylab yoyildi? Xalqimiz 1917 yilda sodir etilgan fevral va oktabr o'zgarishlariga katta umidvorlik bilan ko'z tikkandilar. Ular ilg'or jadidchilik harakati rahnamoligida Rossiyada rivojlanib borayotgan inqilobiy demokratik harakatlardan foydalanib, erk, ozodlikni qo'lga kiritmoqchi, o'lka xalqlarini mustaqillikka olib chiqmoqchi bo'lgandilar. Makkor bolshevik yo'lboshchilarning oktabr o'zgarishi arafasida va undan keyin e'lon qilgan millatlar erki, mustaqilligini tan olgan rasmiy hujjatlari Turkiston xalqlarida o'z orzu-umidlarimiz ro'yobga chiqadi, milliy mustaqilligimiz qaror topadi, degan umid tug'dirgan edi. Biroq sovet hokimiyati o'rnatilib, mustahkamlana borgan sayin bolsheviklar dohiylarining ikkiyuzlamachilik, munofiqlik qiyofasi ham ochilib bordi. Mahalliy xalqqa butunlay yot kommunistik mafkurani bayroq qilib olgan sovet zulmkorlari aholining milliy qadriyatlari, udumlari, diniy e'tiqodini tahqirlash, masjid, madrasalar, ziyoratgoh joylarni oyoq osti qilish, noyob ma'naviy bisotlarni talash, dindorlarni ta'qib-u quvg'in ostiga olish kabi nomaqbul ishlari aholi nafratini kuchaytirdi.

O'lka xalqlarining xohish-irodasi bilan vujudga kelib, ularning milliy manfaatlari yo'lida ilk qadamlar qo'yib borayotgan Turkiston Muxtoriyatini qonga belanishi, yurt farzandlarining qirg'in

qilinishi, Qo‘qon shahri va uning atrofidagi qishloqlar aholisining ayovsiz xunrezlik va talon tarojlikka duchor etilishi butun Turkistonni mustabid sovet hokimiyatiga qarshi oyoqqa turg‘izdi. Sovet hokimiyatining aholining xususiy mulkini tortib olish, davlat tasarrufiga olishga qaratilgan iqtisodiy siyosati odamlarning sovet tuzumiga nisbatan kuchayib borayotgan nafratg‘azabiga so‘nggi tomchi bo‘lib qo‘shildi. Yuz minglab millatparvar, vatanparvar yurt kishilarini qo‘lda qurol bilan sovetlar zo‘ravonligiga qarshi kurashi mana shu zaylda boshlanib ketdi. Turkistondagi qurolli harakatining asosiy harakatlantiruvchi kuchlari dehqonlar, chorikorlar, mardikorlar, hunarmandlar va kosiblar edi. Turkiston mintaqasida bolsheviklar hukmronligidagi sovet rejimiga qarshi qurolli harakati 1918-yil fevral oyining so‘nggi o‘n kunligida dastlab Qo‘qon atroflarida boshlandi. Bu harakatga xalq orasidan yetishib chiqqan, uning g‘am-alami, orzu-armoni, maqsad-intilishlariga hamdard va sherik bo‘lgan Kichik va Katta Ergash, Madaminbek, Shermuhammadbek, Xolxo‘ja Eshon, Islom Pahlovon, Rahmonqul, To‘ychi, Aliyor qo‘rboshilar singari taniqli rahnomolar yetakchilik qildilar. 1918 yil bahoridan vodiyning turli joylarida 40 dan ziyod qo‘rboshi dastalari faoliyat ko‘rsata boshladi.

1918 yil martida Qo‘qon uezdining Bachqir qishlog‘ida qurultoy o‘tkazildi. Unda Katta Ergash butun Farg‘ona vodiysi harakatining rahbari etib saylandi. Unga qo‘shinlarning bosh qo‘mondoni – “Amir al-Muslimin” unvoni beriladi. Madaminbek va Shermuhammadbek esa uning o‘rinbosarlari etib saylandilar.

Tajribasi boy, yurt kezman, yuksak harbiy sarkardalik iste‘dodiga ega Madaminbek (1892 – 1920) tezorada vodiy kurashchilari sardoriga aylanadi. Sovetlarning rasmiy hujjatlaridan birida ta‘kidlanishicha, «o‘z oldiga sovet hokimiyatini ag‘darish va Farg‘ona muxtoriyatini tiklash vazifasini qo‘ygan Madaminbek tadbirkor siyosatchi va uddaburon tashkilotchi fazilatlariga ega edi». 1919 yilning o‘rtalariga kelib uning yigitlarining soni 25 ming kishidan oshardi. Madaminbekning xalq lashkarlari, ayniqsa, 1919-yilning birinchi yarmida sovet qo‘shinlariga qarshi bir qator sezilarli zarbalar berdilar. 1919 yil aprel oyida Madaminbek yigitlari Namangan va Qo‘qon shaharlari atroflaridagi janglarda g‘olib keldilar.

1919 yil kuziga kelib Madaminbek lashkarlarining jangovorlik harakatlari keng hududlarga yoyildi. Bu davrga kelib Monstrovning rus krestyanlari (dehqonlari)dan tashkil topgan ancha ta‘sirli harbiy qismlari Madaminbek kuchlari bilan birlashdi. Bu hol xalq kurashining nafaqat ijtimoiy tarkibiga, balki ayni chog‘da milliy tarkibiga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatar, uning maqsad - vazifalariga yangicha yondashishni taqozo etardi. Gap shundaki, bunga qadar sovetlarga qarshi harakat saflarida o‘zbeklar, tojiklar, qozoqlar, qirg‘izlar, turkmanlar, uyg‘urlar va qoraqalpoqlar singari yerli millat kishilari kurashib kelayotgan bo‘lsalar, endilikda unga sovetlar siyosatidan keskin norozi bo‘lgan rus dehqonlari ham qo‘shilgan edilar. Harakat tarkibidagi bu o‘zgarish 1919 yil oktabrida Pomirning Ergashtom ovulida Madaminbek tarafdorlari tashabbusi bilan tuzilgan “Farg‘ona Muvaqqat Muxtoriyat hukumati” tuzilishida ham o‘z ifodasini topgand edi. Farg‘ona hukumati boshlig‘i va musulmon qo‘shinlari bosh qo‘mondoni etib Madaminbek saylangan edi. Biroq afsuslanarli jihati shundaki, mazkur Muvaqqat hukumat o‘z faoliyatini amalda uddalay olmadi. Buning boisi birinchidan, uning mutasaddilarining boshi urush harakatlaridan chiqmadi. Ikkinchidan, u biror bir xorijiy davlat bilan diplomatik aloqa o‘rnatish imkoniyatiga ega bo‘lolmadi. Qorboshilar o‘rtasidagi sansolarlik, o‘zaro ichki ziddiyatlar o‘z salbiy ta‘sirini ko‘rsatmasdan qolmadi. Masalan, Xolxo‘ja tez orada o‘z kuchlarini ajratib, mustaqil faoliyat ko‘rsata boshladi, bu holat xalq ozodlik kurashining pasayib, so‘nib borishiga olib keldi. O‘lkadamustahkamlanib olishga ulgurgan bolsheviklar hokimiyati Markazdan yetarli darajada harbiy kuch, qurol – yarog‘ olib, son – sanoqsiz harbiy mutaxassislarni jalb qilib, ularni Farg‘ona frontiga yo‘llash, xalq lashkarlaridan qonli o‘ch olishga safarbar qildi. 1920 yil boshlarida sovet qo‘shinlari Ergash, Madaminbek, Shermuhammadbek va Xolxo‘ja kuchlariga sezilarli zarbalar berdilar.

Madaminbek 1920 yil martida sovet qo‘mondonligi bilan muzokara olib boradi va sulh imzolab o‘z harakatlarini to‘xtatadi. Bu sulh shartlariga asosan Madaminbek va uning 1200 nafardan ziyod askar yigitlarining daxlsizligi, o‘z qurol – yarog‘lariga ega bo‘lishi, kerak

bo'lganda ularning vodiya tinchlik, barqarorlik o'rnatishda faol ishtirok etishi ta'kidlangan edi. Madaminbek bu kelishuvga, uning mahalliy xalq uchun foydali, manfaatli bo'lishiga ishongan edi. Shu bois ham u o'zining boshqa safdoshlariga ham sovetlar bilan muzokaralar olib borib, shunday yo'l tutishni maslahat beradi. Biroq Shermuhammadbek va Xolxo'ja o'z huzurlariga muzokara uchun kelgan yurtning bu mard o'g'lonini sotqinlik va xoinlikda ayblab, uni qatl ettiradilar. Garchand Farg'onada sovet hokimiyatiga qarshi kurash bundan keyin ham yangi-yangi kuchlar bilan qo'shilishib turli tarzda davom etsada, biroq u avvalgidek keng qamrovli jangovar, hujumkor yo'nalish kasb etolmadi. 1920 – 1923 yillar davomida vodiya hududlari bo'ylab olib borilgan xalq ozodlik kurashlariga aka – uka Shermuhammadbek va Nurmuhhammadbek, ulardan so'ng Islom Pahlavon va Rahmonqullar yetakchilik qildilar. Ularning har birining mislsiz jasorati, qahramonligi, haq va ozodlik yo'lidagi fidoyiligi xalq xotirasida muhrlanib qoldi. Vodiya boshlangan sovetlarga qarshi harakat keyinchalik Turkistonning boshqa hududlariga ham yoyildi.

Sovetlar bu davrda Turkiston frontini tashkil etdi, ammo ichki fuqarolar urushi (Denikin, Kolchak qarshi kurash) tufayli to'liq kuch ishlatolmadi. 1920-yilda Qizil Armiya O'rta Osiyoga 50 ming askar yubordi. Xiva xonligining 1920-yilda sovetlar tomonidan bosib olinishi (Junaidxon rahbarligida qarshilik) harakatni kengaytirdi. Buxoro amirligi ham qurolli harakatga qo'shildi.

Daslabki bosqichda harakatning geografik kengligi – Farg'ona, Surxondaryo, Xorazm va Qoraqalpog'iston – uning ommaviy xususiyatini ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 1920-yilga kelib qurolli harakat vakillari soni 20 mingga yetgan, ularning 70% otliq bo'lgan. Bu bosqichda harakatning zaif tomoni – markazlashmaganlik va ichki nizo edi, ammo u sovet hokimiyatini zaiflashtirdi.

1920–1924-yillar qurolli harakatning eng faol davri bo'ldi. Sovetlarning "Yangi Iqtisodiy Siyosati" (NEP) joriy etilishi va mahalliy elita bilan hamkorlikka urinishlari qarshilikka duch keldi. Qurolli harakat vakillari 1921-yilda Buxoro amirligini qo'llab-quvvatlash uchun Anvar Posho'ni chaqirishdi. U 1922-yilda O'rta Osiyoga kelib, qurolli harakat vakillari rahbari bo'ldi va 1922–1923-yillarda sovetlarga qarshi muvaffaqiyatli janglar olib bordi. Farg'onada Madaminbek faoliyati alohida o'rin tutadi. 1922-yilda qurolli harakat vakillari Toshkentga yaqinlashib, shahar atrofini nazorat qilishdi. Xorazmda Junaidxon 5000 kishilik armiya bilan sovetlarga qarshi chiqdi, ammo 1924-yilda mag'lub bo'ldi.

1924-yildan keyin sovetlar harakatni bostirishga kuchliroq yondoshdi. Milliy chegaralarni o'zgartirish (O'zbekiston, Turkmaniston SSRlarini tashkil etish) va mahalliy rahbarlarni jalb qilish orqali qarshilikni zaiflashtirdi. Qurolli harakat vakillari Afg'onistonga chekingan bo'lsa-da, joylarda qurolli harakat 1930-yillargacha davom etdi.

1930-yillarda kollektivlashtirish va "keng qamrovli terror" (1937–1938) bosmachilik qoldiqlarini yo'q qildi. Sovetlarning muvaffaqiyati harbiy kuch (100 ming askar), razvedka va iqtisodiy bosimda edi.

Qo'rboshilar siyosiy kurashda toblangan ilg'or jadid namoyandalarini harakatga faol jalb qila olmadilar. Harakatning bir markazdan turib boshqarilmaganligi, joylarda harakat qilgan kuchlar o'zlarining tor hududiy chegaralari bilan o'ralashib qolganligi, mahalliy qo'rboshilarning o'z manfaatlariga berilishi, dunyoqarashi torligi, cheklanganligi, manmanlik kasaliga chalinganligi, bir-birlari bilan kelisholmasligi, o'zboshimcha xatti-harakatlarga intilishi kabi hollar oxir – oqibatda bu kurashning borishiga jiddiy salbiy ta'sir qildi.

4.Xulosalar:

Xulosa qilib aytganda, sovet mutasaddilari har bir vaziyatdan ustamonlik bilan foydalanib, o'z mustamlakachilik siyosatini yuritdilar. Mustabid tuzum siyosati qurolli harakat istiqboliga salbiy ta'sir o'tkazmasdan qolmadi, albatta. Bu xalq harakati millionlab yurtodoshlarimiz hayoti va qismatid a o'chmas fojiali iz qoldirdi. Ba'zi aniqlangan rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, u milliondan ziyod mahalliy millat kishilarining aziz umrlariga zomin bo'ldi. Minglab oilalarning o'z ona zaminini tark etib, begona yurtlarga bosh olib ketishlariga sabab bo'ldi. Qolaversa, qanchalab son – sanoqsiz odamlar mana shu milliy fojia bois mamlakatning boshqa, uzoq hududlariga surgun va badarg'a qilindi. Biroq bu xalq harakati bejiz ketmadi. U yurtodoshlarimizga katta, ibratli saboqlar berdi, ularning kurash tajribasining boyishiga muhim

ta'sir ko'rsatdi. Zero, ona O'zbekistonimizning istiqloлга yuz tutib, dorilamon zamonlarga musharraf Qurolli harakat mag'lubiyatining sabablari va oqibatlari bo'lishida, bugungi baxtiyor avlod kishilarining mustaqillik oliy ne'matidan to'la bahra topishida o'sha 20–30 yillarda bobokalonlarimiz qilgan ulkan sa'y – harakatlar, to'kkan qutlug' qonlar, bergan bemisl qurbonlarning ibrati oz muncha emas. Ularning yorqin, porloq xotirasi hozirgi minnatdor avlod kishilarining yodida, shuurida hamisha saqlanadi, faxr – iftixor tuyg'usi bilan eslanadi.

Iqtiboslar/ Сноски/References:

1. Rajabova R. Yo. O'zbekiston tarixi (1917—1993-yil). – T., 1994.
2. Validiy. Bo'linganni bo'ri yer (Xotiralar). – T., 1997.
3. O'zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. (O'zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida). – T., 2000.
4. Turkestan v nachale XX veka: k istorii istokov natsionalnoy nezavisimosti. – T., 2000.
5. Alimova D., Golovanov A. O'zbekiston mustabid sovet tuzumi davrida: siyosiy va mafkuraviy tazyiq oqibatlari. – T., 2000.
6. Ziyoyeva D. Turkiston milliy ozodlik harakati. – T., 2000.
7. Markaziy Osiyo XX asr boshida; islohotlar, yangilanish, taraqqiyot va mustaqillik uchun kurash. Jadidchilik, muxtoriyatchilik, istiqlolchilik. – T., 2001.
8. Rajabov K. Buxoroga qizil armiya bosqini va unga qarshi kurash. – T., 2002.
9. Rajabov Q., Haydarov M. Turkiston tarixi (1917-1924-yil). – T., 2002.



Tadqiqot.uz

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000